



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

ТУПРОҚ УНУМДОРЛИГИ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ЭКИНЛАР ҲОСИЛДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ-ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ, МУАММО ВА ЕЧИМЛАР



Республика миқёсидаги илмий-амалий анжуман

МАТЕРИАЛЛАРИ



20 ноябрь 2021 йил

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**ТУПРОҚ УНУМДОРЛИГИ ВА ҚИШЛОҚ
ХЎЖАЛИГИ ЭКИНЛАР ҲОСИЛДОРЛИГИНИ
ОШИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ-ИННОВАЦИОН
ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ, МУАММО ВА ЕЧИМЛАР**

мавзусидаги

Республика миқёсидаги илмий-амалий анжуман

ТҮПЛАМИ

Бухоро, 2021 йил 19-20 ноябрь

БУХОРО – 2021

**G'IJDUVON TUMANI “OMAD” FERMER XO‘JALIGIDA TARQALGAN
SUG‘ORILADIGAN TUPROQLARNINGXOSSA-XUSUSIYATLARI**
H.T.Artikova, H.X.Salimova, G.H.Tolibova

Buxoro davlat universiteti

Mamlakatimiz rivojlanishining yuqori bosqichiga o‘tgan va dehqonchilikda jadal texnologiyalar ishlab chiqarishga joriy qilinayotgan hozirgi kunda ekin maydonlaridan samarali foydalanish masalalari dolzarb vazifaga aylanib bormoqda.

Respublikada dehqonchilik qilinayotgan yerlarning unumdorligini saqlash, oshirish, muhofaza qilish asosida uning meliorativ holatini bilish, hisobga olish va monitoring qilish tuproqlar unumdorligini oshirishning garovi hisoblanadi.

Tuproqning hosil bo‘lishi, ularning keyingi evolyusiyasi uzoq muddatli va qiyin jarayonlar mahsulidir. U yoki bu tuproq tipining shakllanishida muntazam ravishda ayrim omillarning ta’siri kuchli bo‘ladi. Jumladan, allyuvial tuproqlarning paydo bo‘lishi, uning murakkab evolyusiyasi hamda xususiy morfolitogenetik tuzilishini bevosita daryolarning faoliyati bilan bog‘lash mumkin. G‘ijduvon tumanida o‘tloqi-allyuvial tuproqlar ancha keng tarqalgan va ular sug‘oriladigan ekin yerlarini deyarli katta qismini tashkil qiladi. G‘ijduvon tumanı viloyatning shimoliy-sharqida joylashgan bo‘lib, sug‘oriladigan yer maydoni 20032,0 gektarni tashkil qiladi. Geomorfologik nuqtai nazardan tuman Zarafshon daryosining o‘rtal oqimida joylashgan. Tuproq hosil qiluvchi ona jinslari asosan allyuviydir. Allyuvial yotqiziqlarning morfologik tuzilishi biroz murakkabroq: qum, shag‘al, loyqa-shag‘al, shag‘al-qum, qum-loyqa va hokazo.

G‘ijduvon tuman hududining yer yuzasi g‘arbga pasayib boruvchi tekislikdan iborat. Shimoliy katta qismini Qizilqum cho‘li egallagan. Shimoliy va shimoliy-sharqida Qoratog‘ tizmasining g‘arbiy chekkalari joylashgan. G‘arbiy tomonidan Qizilqum barxanlari bu past tekislik ayrim joylari hozirgi paytda o‘zlashtirilgan. Ko‘p hududlari esa sho‘rxoklar hamda qumliklardan iborat.

O‘rganilgan hudud har xil balandlikda va turli shakldagi barxanlardan tuzilgan bo‘lsa ham sug‘oriladigan dalalarning g‘arbiy tomonlarida past o‘zlashtirilgan maydonlar ham uchraydi. Tumanning umumiylar yer maydoni tekislikda joylashganligi sababli sizot suvlari chuqurligi o‘rtacha 1-3 metr bo‘lib, qadimdan sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial tuproqlarning shakllanishiga olib keladi.

O‘rganilgan hududning sizot suvlari asosan 1,5-3,0 m chuqurlikda joylashgan. Vegetatsiya davrida sizot suvlari sathi vegetatsiya davrida beriladigan suvlari ta’sirida katta oraliqda tebranishda (1-2,5) bo‘ladi.

Tadqiqotlar olib borilgan hudud tuproqlaridagi gumusning miqdori ko‘pchilik hollarda 0,24-1,56 foizni tashkil etadi. Bu esa ushbu hudud tuproqlarining o‘rtal darajada gumus bilan ta’milanganligidan dalolat beradi.

Tuproqdagi ozuqa elementlarining dinamikasi bo‘yicha olib borilgan tajribalarda g‘o‘za vegetatsiyasining oxirida haydalma qatlama 0,423 va haydalma qatlama ostidagi qatlama 2,77 mg/kg miqdorida N-NO₃ saqlanib qolganligi o‘rganilgan. Vegetatsiya davrining oxirida ham bu tuproq harakatchan azot bilan yuqori darajada ta’milangan.

Tuproqning xossalari ichida uning singdirish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Singdirilgan kationlarning xarakteriga ko‘ra, tuproqning fizikaviy, kimyoviy va biologik xossalari o‘zgaradi. Kalsiy kationi bilan to‘yingan tuproqlarning fizikaviy xossalari yaxshi, natriy bilan to‘yingan tuproqlarniki ancha yomon bo‘ladi. Tuproq eritmasining reaksiyasi ham singdirilgan kationlarga bog‘liq. Tuproqning singdirish sig‘imi qanchalik yuqori bo‘lsa, ushbu tuproqlarning unumdorligini ham shuncha yuqori deb hisoblash mumkin.

Tuproqning ozuqa, suv va –havo va issiqlik rejimiga ta’sir etuvchi asosiy ko‘rsatkich bu uning mexanikaviy tarkibidir. Mexanikaviy tarkib, tuproq chirindisi, ozuqa elementlari kabi juda o‘zgaruvchan ko‘rsatkich bo‘lmaseda u o‘zlashtirishni dastlabki bosqichlarida, keyinchalik esa xilma-xil agroirrigatsion yotqiziqlar ta’sirida biroz o‘zgarishi mumkin.

O‘rtacha va yengil qumoqli tuproqlar qulay suv-fizik va agronomik xususiyatlarga ega. Ular og‘ir qumoqli va loyli tuproqlarga nisbatan yengil bo‘lganligi uchun meliorativ tadbiri

oson kechadi. Mexanikaviy tarkibni tashkil qiluvchi zarrachalardan mayda qum (0,1-0,05 mm) va yirik changning (0,05-0,01 mm) asosiy qism bo‘lib, ularning miqdori 15-45 % o‘rtasidadir.

G‘ijduvon tuman “Omad” fermer xo’jaligida tarqalgan qadimdan sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial tuproqlarning mexanik tarkibi. Kesma-SH-1,% hisobida

jadval-1

№	Chuqurlik (sm)	Fraksiyalar o‘lchami (mm)							Fizik loy	Tipi
		>0,25	0,25- 0,1	0,1- 0,05	0,05- 0,01	0,01- 0,005	0,005- 0,001	<0,001		
1	0-22	2,5	2,5	7,6	43,7				43,7	O’rta
2	22-46	5,0	3,5	4,8	39,8				46,9	O’g’ir
3	46-77	4,3	4,5	5,4	39,8				46,1	O’g’ir
4	77-98	1,0	1,7	12,3	31,0				54,1	O’g’ir
5	98-108	1,3	1,0	11,1	39,8				46,9	O’g’ir

0,25 mm dan yirik zarrachalarning miqdori 2,5-1,3 foiz atrofida. 0,25-0,1 mm li zarrachalarning miqdori esa 2,5-1,0 foizni tashkil etadi. 0,1-0,05 mm li zarrachalar miqdori esa 7,6-11,1 foiz atrofida taqsimlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.O‘zbekiston sug‘oriladigan yerlarining meliorataiv holati va ularni yaxshilash. O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo‘mitasi. Toshkent, “Universitet” nashriyoti, 2018. 7-8 b.
- 2.H.T.Artikova, H.Salimova. Morphological Condition of Irrigated Soils of Gijduvan District of Bukhara Oasis, Salinity Levels and Increase of Their Fertility. Annals of the Romanian Society for Cell Biology. Journal. ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 3, 2021, Pages.3214-15.
- 3.Х.Т.Артикова, Ҳ.Ҳ.Салимова. Тупроқ унумдорлигини оширишда физик хусусиятларнинг аҳамияти. “Қишлоқ хўжалигига экологик муаммолар ва уларнинг ечими” мавзусидаги Республика миқёсидаги хорижий олимлар иштирокида онлайн илмий-амалий анжуман тўплами.-Бухоро, 2020 йил 17-18 декабр. б.116-117

ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ БИОЛОГИЧЕСКОГО АЗОТА

С.М.Гафарова

Бухарский государственный университет

Применение повышенных доз минеральных удобрений, интенсивные способы механической обработки почвы, мелиорация и другие агротехнологии значительно активизируют микробиологические процессы минерализации свежего органического вещества и гумуса, сопровождающихся уменьшением его запасов в почвах. Вследствие деградации гумуса почвы постепенно утрачивают агрономически ценные свойства: снижаются поглотительная и водоудерживающая способности, разрушается структура, увеличивается плотность, ухудшаются технологические качества и т.д.

Для предотвращения создавшейся в условиях интенсивного земледелия напряженной экологической обстановки необходима разработка принципиально новой его стратегии. В последние годы повысился интерес к нетрадиционным методам земледелия и растениеводства, предполагающим широкое использование биологических способов

I ШЎЬБА.

**ЕР РЕСУРСЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ВА ТУПРОҚ УНУМДОРЛИГИ,
ЭКИНЛАР ҲОСИЛДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИ ЭКОЛОГИК АСОСЛАРИ**

1	М.И.Рузметов. Тоғ, тоғолди ва чўл яйлов ерлари тупроқларининг морфогенетик хусусиятлари	5
2	Г.Т.Парпиев. Современное состояние орошаемых почв сероземного пояса	9
3	Абдурахмонов Н.Ю., Мансуров Ш.С. Шарқий Фарғона сугориладиган тупроқларининг хоссалари ва унумдорлиги	14
4	O.O.Mamatqulov, J.O.No'monov. Pomidor zang kanasi va uning keltiradigan zarari.	18
5	M.F.Fakhrutdinova, O.N.Imomov. Turli darjada sho`rlangan o`tloqi allyuvial tuproqlardagi tuzlarning yuviilishsamaradorligiga biosolvent preparatining ta'siri	19
6	H.T.Artikova, J.J.Jumayev. Buxor viloyati tuproqlarini degradatsiyaga uchrash sabablari va uni oldini olish omillari (SHofirkon tumani misolida)	21
7	Р.Курвантаев, С.М. Назарова, Бухоро воҳаси сугориладиган ўтлоқи тупроқларининг шўрланганлик даражаси.	23
8	S.S.Xayriyev, J.J.Jumayev. Tuproq va ekologiya.	27
9	S.M.Mardonova, M.M.Akramova. Abu Ali ibn Sino asarlarida tibbiy-ekologik madaniyatni oshirish masalasi.	29
10	Z.A.Jabbarov, N.Sh.Sultonova. Og'ir metallarni tuproqning fermentativ faolligiga ta'siri.	31
11	T.K.Ortikov, M.A.Rahimova. Vobkent tumani tuproqlarida mikrobiologik jarayonlar yo'nalishi va faolligini agrokimyoiy xossalari shakllanishiga ta'siri.	32
12	Р.Курвантаев, М.Истамова, М.Мусурманова. Влияние мульчирование при гребневом посеве на рост развитие хлопчатника.	34
13	T.Abduraxmonov, M.Karimboyeva. Qurg'oqlanish jarayonini yarim ustahkamlangan qumli cho'l tuproqlarning biologik xossalariга ta'siri.	37
14	H.H.Salimova, S.D.Elmurodova, M.M.Toxirova. Buxoro viloyati sug'oriladigan tuproqlarning meliorativ- ekologik-holatini yaxshilash va tuproq unumdarligini oshirish omillari	38
15	I.G'Masharipov, N.X.xo'jayev, T.S.Atajanov. Tuproqni himoyalovchi dehqonchilik-barqaror ekologiya garovi.	40
16	Р.Юнусов, С.Назарова, М.Артикова. Когон туман сугориладиган ўтлоқи алливиал тупроқларининг агрокимёвий хосса ва хусусиятларини яхшилаш.	41
17	А.Ахмадеева, Г.Джалилова. Исчезновение аральского моря - экологическая катастрофа центральной азии, ставшая проблемой мирового масштаба	43
19	З.А.Болтаева, А.Э.Холлиев. Ўза навлари ва стресс омиллар.	45
20	З.А.Жаббаров, Д.К.Бегимова. Нефть билан ифлосланган тупроқларни бактерия ва ўсимликлар воситасида тозалаш.	47
21	H.T.Artikova, H.X.Salimova. G.H.Tolibova G'ijduvon tumani "Omad" fermer xo'jaligida tarqalgan sug'oriladigan tuproqlarningxossa-xususiyatlari.	49
22	С.М.Гафарова. Экологическое значение биологического азота.	50
23	С.Сидиков, Н.Панаева, С.Юнусова. Суюқ сусpenзион комплекс ўғитларнинг қишлоқ хўялигидаги агроэкологик авзалликлари.	52
24	З.А.Жаббаров, Г.Р.Атоева. Сугориладиган типик бўз тупроқларнинг майший чиқиндилар билан ифлосланишнинг тупроқг микробиологик ҳолатига таъсири.	54
25	А.У.Ахмедов, Ж.М.Турдалиев, А.Б.Мирзамбетов, Н.Х.Бурханова, Н.А.Қиличова. Соғлом тупроқ-барқарор қишлоқ хўялиги гарови.	56
26	Х.Нуриддинов, Х.С.Сафаров. Сув тақчиллиги шароитида сув ресурсларидан самарали фойдаланиш, сугориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш.	57
27	Г.Р.Атоева. Майший чиқиндилар билан ифлосланган тупроқларнинг физик	59